O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI LINGVISTIK BELGINING SHAKL VA MAZMUN MUNOSABATI

Aytbayev Dilshodxuja Temirbayevich
Guliston davlat instituti O‘zbek tili va tillarni
o‘qitish kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori. (DSc)
Amanova Asem Nurjan qizi
Guliston davlat pedagogika instituti qozoq tili va adabiyoti
ta’lim yo‘nalishi 14-22-guruh talabasi

Mustaqillikning so‘nggi yillarida milliy tilshunosligimizda ona tilimizni yangi ilmiy paradigmalarga asoslangan holda yanada chuqur o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratila boshlandi. “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir.” [16]. Bu

borada o‘zbek tilidagi qo‘shma gaplardagi munosabatlarni yoritish, o‘zbek tilining betakror jozibasini ko‘rsatishga qaratilgan izlanishlarni ko’paytirish dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbek tilshunosligida lisoniy birliklarning semantik va sintaktik munosabatlari masalasida diqqatga sazovor tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, professor N.Mahmudov tomonidan o‘zbek tilida sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya masalasi monografik planda o‘rganilgan, ergash gapli qo‘shma gaplarda shakl va mazmun munosabati haqida ham ma’lumot berilgan [7; 148]. Shu bilan bir qatorda, o‘zbek tilining turli sath birliklarida shakliy va mazmuniy nomuvofiqlik masalasiga doir A.Nurmonov, D.Lutfullayeva, M.Mirtojiyev, A.Berdialiyev, A.Sayfullayeva, A.Mamajonov, M.Xolboyeva, R.Abdusamatov, M.Mamatov, N.Ahmedova, M.Haynazarova, D.Aytbayevlarning ishlari ana shunday izlanishlardan bo‘lib, ular o‘zbek tilida lisoniy birliklar o‘rtasidagi asimmetriya hodisasi va unga olib keluvchi holatlarni tadqiq qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Lekin shunday bo‘lishiga qaramay, o‘zbek tilshunosligida qo‘shma gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya va mazkur hodisani yuzaga olib keluvchi holatlar masalasi monografik planda o‘rganilmagan.

O‘tgan asrning 80-yillarida N.Mahmudov o‘zbek tilidagi sodda gaplarda asimmetrik dualizmning namoyon bo‘lishini monografik tadqiqot obyekti qilib olgan bo‘lsa [7; 148], oradan yigirma to‘rt yil o‘tgach, M.Mirtojiyev o‘zbek tilidagi gap bo‘laklarida ana shunday munosabatni yoritib berishga bel bog‘ladi [8; 189]. Lekin N.Mahmudov bilan M.Mirtojiyevning semantik struktura masalasidagi pozitsiyasi bir xil emas. Bu hozirgacha sintaktik birliklarning semantik tuzilishi tushunchasining tilshunoslikda noaniqligi, mazkur muammo bo‘yicha turli yo‘nalishlarning maydonga kelganligi bilan bog‘langandir. N.Mahmudov bu yo‘nalishlarning barchasini chuqur o‘rganib, gap semantikasi – obyektiv va subyektiv ma’nolar munosabatidan tashkil topgan butunlik degan qarashga moyillik bildiradi va gap semantikasining asosi sifatida obyektiv voqelikni tushunadi. Bu voqelik sintaktik semantikaning nominativ yo‘nalishida propozitsiya atamasi bilan nomlanadi. Propozitsiya muayyan gap semantikasida o‘z ifodasini topgan muayyan voqea-hodisa hisoblanadi [11; 31].

O‘zbek tilshunosligida lingvistik belgining shakl va mazmun munosabatini yoritib beruvchi bir qator tadqiqotlar mavjud. Xususan, prof. N.Mahmudov sodda gaplarda shakl va mazmun munosabatini tahlil qilar ekan, sodda gap doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik tildagi tejash tamoyilining amal qilishi sifatida namoyon bo‘lsa, qo‘shma gaplardagi bunday nomuvofiqlikning zamini tildagi ortiqchalilik tendensiyasiga borib taqalishini ta’kidlaydi [7; 148]. Uning fikricha, bir denotativ voqea ifodalangan ergash gapli qo‘shma gaplarda mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik har doim mavjud bo‘ladi va buning yuzaga kelishi tildagi ortiqchalilik tendensiyasiga borib taqaladi.

Sintaktik birliklarning mohiyatini aniqlashda ham uning bir tomoniga tayanish kutilgan natijani bermaydi. Turli propozitiv ma’noga ega bo‘lgan xilma-xil mazmuniy tuzilishdagi gaplar uchun mazmuniy umumiylik obyektiv borliqning muayyan bo‘lagini nomlashdan iboratdir. Obyektiv borliqning bu bo‘lagi, qismi inson ongida aks etadi va muayyan lingvistik vositalar yordamida ifodalanadi. Obyektiv borliq inson ongida qanday aks etishi va uning qanday vositalar yordamida ifodalanishiga ko‘ra ham shakl va mazmun munosabatlari o‘zgarishi mumkin.Tilda shunday hodisalar mavjudki, ular shakl va mazmun munosabatini chuqurroq tahlil qilishni taqozo qiladi. Xususan, omonimiya, sinonimiya hodisalari belgining shakli va mazmuni o‘rtasidagi munosabatlarning murakkab xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘zbek tilshunosligida lingvistik belgining shakl va mazmuni o‘rtasidagi asimmetrik munosabat tilning barcha sathlarida amal qiluvchi universal hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aytbayev D.T. O‘zbek tilidagi qo‘shma gaplarning semantik-sintaktik asimmetriya. Filol.fan.dokt. …diss. avtoref. – Toshkent. 2024. – 77 b.

2. Абдусаматов Р. Лисоний тежамкорлик ва гап бўлакларининг ноамалий мавқеи масаласи // Ўзбек тилшунослигига оид тадқиқотлар. – Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1999. – № 3. – Б. 12-16.

3. Бердиалиев А. Семантико-сигнификативная парадигматика и синтагматические отношения в конструкциях сложноподчиненного предложения узбекского литературного языка: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1989. – 26 с

4. Лутфуллаева Д.Э. Тасдиқ гапларда инкор ва шаклий-мазмуний номувофиқлик: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 26 б.;

5. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1992. – 170 б.

6. Маматов М. Вторичный предикат в структуре простого предложения узбекского языка: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. –Ташкент, 1990. – 23 с.

7. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 148 б.

8. Миртожиев М. Ўзбек тилидаги гап бўлакларида семантик-синтактик номутаносиблик. – Тошкент: Университет, 2008. – 199 б.

9. Миртожиев М.М. Гап бўлакларида семантик-синтактик номутаносиблик. – Тошкент: Университет, 2008. – 200 б.;

10. Аҳмедова Н.Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликларнинг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ..дисс. автореф. –Тошкент, 2008.– 25 б.

11. Нурмонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари. // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1988. – № 5. – Б. 22-27.;

12. Сайфуллаев А.Р. Семантика и грамматика членов предложения в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... д-ра филол.наук. – Ташкент, 2001. – 48 с

13. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь.

14. Холбоева М.М. Ўзбек тилидаги гапларнинг семантик мураккаблашуви. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2010. – 59 б

15. Ҳайназарова М. Сўроқ гапларда шакл ва мазмун номувофиқлиги: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 25 б.